

**G.N.Bozorova ,G.Ulug'berdiyeva
NDKTU akademik litsey o'qituvchilari**

MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA SIFATLASHNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoir Muhammad Yusuf she'rlarida ishlatilgan turli badiiy tasviriy vositalar-epitet(sifatlash), qarshilantirish, anaphora, epifira kabilarning mohirona foydalanishi haqida gapirilib, aynan epiforaning ishlatilishi bo'yicha alohida to'xtalgan.

Kalit so'zlar: Ekspressivlik, obrazli ifodalar, epitet(sifatlash), "Unutish" she'ri, ijodkor topilmasi.

O'zining xalqona she'riyati bilan o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan Muhammad Yusuf she'rlarida "ohori to'kilmagan" shakllar orqali ifoda etilgan ko'ngil talpinishlarini, poyonsiz tuyg'ular ishorasini sezgandek, ko'rgandek bo'lamic. Umumxalq tilida mavjud bo'limgan, "ijodkor topilmasi", nutqiy hodisa sifatida bir so'zga yangi ma'no berishi, uning ma'no nozikliklaridan ustalik bilan foydalanishi ijodkorning yuksak mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi.

Ijodkor tasvirlayotgan narsa yoki voqeanning o'zi zarur hisoblagan tomonini ma'lum nuqtai nazardan turib baholaydi. Bunda ijodkor sifatlash vositasidan samarali foydalanadi. Epitet-izohlovchi degan ma'noni bildiradi, ya'ni u poetik izohlovchidir. U boshqa doimiy aniqlovchilardan :

-ekspressivlik hosil qilishi;

-ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan farqlanadi. Predmet sifatida tasvirli, obrazli ifodalash uchun qo'llanadigan so'zdir.

Ijodkorning yaratgan asarlarida bir-birini takrorlamaydigan, o'ziga xos, ichki kechinmalarni yaqqol obrazli ifodalagan epitetning yorqin na'munalarini ko'plab uchratamiz: temir yurak, tosh yostiq, tuzsiz she'r kabi.

Muhammad Yusuf o'zining "Singlimga xat" she'rida :

Qo'ygil meni deyman, ey shirin azob

Quyoshga termulay,

Yerga bosay bag'ir

Qo'shiqlar kuylashga boshqa odam top!..¹

Ushbu misradagi shirin azob birikmasida ijodkor sifatlashdan ustalik bilan foydalangan. Ma'lumki, azob so'zining ma'no qurshovida "shirinlik" belgisi mavjud emas, balki "achchiqlik" hosilasi ma'nosи hukmron bo'lib, ushbu shirin azob birikmasidagi shirin so'zi o'ziga xos ekspressivlik kasb etadi va konnotativ ma'no ifodalaydi. Ya'ni ijodkor ayni ijodga berilgan

¹ Muhammad Yusuf. Bulbulga bir gapim bor-T.: "Sharq", 2015.-12b.

mahal uning qalbiga yog’ilib keluvchi “ilhom onlarini” nazarda tutadi va uni “shirin azob ” deya tasvirlaydi. Bunday birikmalarni ijodkor asarlarida ko’plab uchratishimiz mumkin: Shirin dard, shirin g’am, shirin jon kabi.

Yana qaysar ruhim

Jonimni cho’qir

Yoz deydi, singiljon

Qo’rqay nimadan?..²

Yuqoridagi misralarda ijodkorning ilhom onlari- shirin azob deya tasvirlansa, quyidagi misralarda esa o’sha shirin azob uning qaysar ruhini ishg’ol etib, jonini cho’qiyotganini ifodalaydi. Ushbu misradagi “qaysar ruh” birikmasi ham sifatlashning o’ziga xos ko’rinishidir. Qaysarlik inson xarakteriga xos bo’lib “qaysar inson ” bo’ladi, ammo ijodkor ushbu qaysarlik belgisini inson ruhiga ko’chirganiga guvoh bo’lamiz.

Men kimni aldadam. Ilk yolg’onlarim

Soxta tabassumim kimga ataldi?

Menga shuhrat tutgan xushomadlarim,

Otamning qabriga tig’day qadaldi.³

Shoirning ”Unutish” she’ridan olingan ushbu parchada keltirilgan soxta tabassum birikmasi ham epitetning o’ziga xos ko’rinishi bo’lib, ijodkor “ soxtalik” belgisini tabassumga ko’chirish orqali unga ekspressivlik kasb etadi. Aslida tabassum –inson his-tuyg’ularining ifodasi o’laroq, u chin dildan xursand bo’lganda zohir bo’ladi. Ammo, ijodkor aytayotgan soxtalik –majburiyat belgisidir.

qiladigan, yuragini hapqirtiradigan, shu bilan birga uni o’rtaydigan go’zal tuyg’u-muhabbatdir.

Shoir sifatlash(epitet)dan foydalanib, go’zallik belgisini iztirobga ko’chirgan va izritobni o’ziga xos ma’no qirrasini go’zallik belgisi orqali ochib bergen. Shoirning “Onamga” she’rida ham buning o’ziga xos ko’rinishini uchratamiz:

Sizsiz g’arib ko’nglim ko’ngilmi, onam,

Endi men ham sizga o’g’ilmi, onam!..⁴

“g’ariblik” insonga xos bo’lgi, inson bu dunyoda g’arib misoli sarson va sarg’ardon yashaydi, shoir bu g’ariblik belgisini ko’ngilga ko’chiradi va uning o’ziga xos ma’no qirralarini ochib beradi.

² Muhammad Yusuf. Saylanma: she’rlar, dostonlar, xotiralar-T.:”Sharq”, 2015.-40b.

³ Muhammad Yusuf. Bulbulga bir gapim bor-T.:”Sharq”, 2015.-26b.

⁴ Muhammad Yusuf. Saylanma: she’rlar, dostonlar, xotiralar-T.:”Sharq”, 2015.-34b.

Yulduzdan ham olis, o, sen buyuk g'am

Bugun o'zing yo'qsan faqat yonimda.⁵

Bizga ma'lumki g'am insonni tushkunlikka tushiradi.G'am og'ir, cheksiz bo'lishi mumkin, ammo shoir buyuklik belgisini g'amga ko'chiradi va unga yuksaklik, buyuklik baxsh etadi. Misradagi buyuk g'am birikmasida ham shoir epitetdan mohirona foydalanganiga amin bo'lamiz.

Xullas, Muhammad Yusuf asarlarida uchrovchi bunday birikmalar individualligi, yangiligi, ko'nikilmaganligi va ohorliligi bilan tasvir ifodaligini ta'minlab, sifatlash(epitet)ning yorqin na'munalarini vujudga keltirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.148.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma: she'rlar, dostonlar, xotiralar-T.:”Sharq”, 2015.-34b
3. Muhammad Yusuf. Bulbulga bir gapim bor-T.:”Sharq”, 2015.-7b.

⁵ Muhammad Yusuf. Bulbulga bir gapim bor-T.:”Sharq”, 2015.-7b.